

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: *Н.Юсупов*

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



QON VA PESHOBDA GI GLYKOZA VA KETON TANACHALARINI QANDLI DIABET KASALLIGIDA SUTKA DAVOMIDA O'ZGARISHI

S.A.Mavlanova, Namangan davlat universiteti
D.N.Sheraliyeva, Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada qandli diabet bugungi kunda yuqori rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan surunkali hastalik ekanligi, dunyoni hamma mamlakatlarida bunday bemorlar soni har yili ortib borayotganligi va turli yoshdagi qandli diabet kasalligiga uchragan bemorlarni qon va peshobidagi glykozani va keton tanachalarini sutka davomida o'zgarishini amaldagi metodlar yordamida organilganlik to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

СУТОЧНОЕ ИЗМЕНЕНИЯ ГЛЮКОЗЫ И КЕТОНОВЫХ ЧАСТИЦ В КРОВИ И МОЧИ ПРИ ДИАБЕТЕ

С.А. Мавланова, Наманганский государственный университет
Д.Н.Шералиева, Магистр Наманганский государственный университет

Аннотация: в статье приводятся данные о том, что на сегодняшний день сахарный диабет является самым распространенным хроническим заболеванием в высокоразвитых странах, число таких больных каждым годом увеличивается во всех странах мира и суточное изменение сахара и кетоновых телец в крови и мочи больных сахарным диабетом можно изучить различными методами.

DAILY CHANGES IN GLUCOSE AND KETONE PARTICLES IN THE BLOOD AND URINE IN DIABETES

S.A. Mavlanova, Namangan state university
D.N.Sheraliyeva, Master of Namangan state university

Abstract. The article presents data on that today diabetes mellitus is the most widespread disease in the developed countries, an amount of patients of different ages with such a disease increase annually in all countries of the world and daily alterations of blood and urine sugar content and ketone bodies can be studied with the help of different methods.

Mavzuning dolzarbligi: Qandli diabet kasalligi "yosharayotgan" kasallik hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar va xatto bolalar orasida qandli diabet kasalligi keng tarqalganligi kuzatilmoqda. Davolashda qo'llanishi kerak bo'lgan usullar u qadar qiyin emas va u usullar maqolada keltirilgan.

Adabiyot tahlili: Qandli diabet bugungi kunda yuqori rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan surunkali hastalik. Dunyoni hamma mamlakatlarda bunday bemorlar soni har yili ortib boryapti.

Qandli diabet endokrin kasalliklari qatoriga mansub bo'lib, insulin garmoni to'liq yoki qisman yetishmovchiligidan kelib chiqadi. Natijada qonda giperglikemiya-qondagi glyukoza miqdorining davomli ortib borishi kuzatiladi. Kasallik surunkali davom etishi va organizmdagi moddalar almashinuvi jarayonlari (uglevod, yog', oqsil, mineral va suv-tuz almashinuvi)ning buzilishi bilan tavsiflanadi.



Qandli diabetning 1-2-turlari mavjud. **1-turi** asosan o'smirlar va bolalarda oshqazon osti bezidan ishlab chiqiladigan insulinni mutloq yetishmasligi bilan kechadi. **2-turida** esa qondagi qand miqdorini ortishi insulin rezistentlikning oqibatida kelib chiqadi.

Dunyoda qandli diabet kasalligiga chalinganlar soni 375 mln kishidan ortib ketdi. Kasallar soni har yili 5 – 7 %, har 10-12 yilda esa 2 barobar ko'paymoqda. Agarda qandli diabet shu tarzda davom etadigan bo'lsa 2030-yilga borib ularning soni 552 mlnni tashkil etish ehtimoli bor. Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston katta yoshli aholisining 5% ga yaqini diabet kasalligiga duchor bo'lgan. 2011-yilda be'morlar soni 122460 dan ortib ketdi. Bulardan 15.8 % qandli diabet kasalligini 1-turini, 84.2% qandli diabet 2-turini tashkil etadi. Ularning 16 % muntazam ravishda insulin dorisini qabul qiladilar. Boshqalari esa parhez saqlashadi. Jismoniy faollik va qand miqdorini kamaytiruvchi dorilar ichadilar. Qandli diabeti bo'lgan be'morlarning deyarli yarmini ayollar tashkil qiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, tug'ruq yoshidagi 0,35 % ayol qandli diabet bilan xastalangan. Hamma homilador ayollarning 0,2-0,3% ini homilador bo'lishdan avval diabeti bo'lgan ayollar tashkil qiladi. Homiladorlik davrida yangi aniqlangan qandli diabet barcha homilador ayollarning 4% ida aniqlanadi. Hozirgi kunda dunyoning eng peshqadam diabetologik markazlarida homiladorlikning qandli diabeti bor ayollardagi asoratlari 2% ni tashkil qiladi. Bu raqam umumiy aholida uchraydigan homiladorlik asorati miqdoriga to'g'ri keladi[2]. Hozirda, o'zining tarqalishi va uchrashiga ko'ra qandli diabet qon – tomir va onkologik kasalliklar ichida 3- o'rinni egallaydi. Endokrin kasalliklar ichida esa 1- o'rinni egallaydi. Shu muommalarni o'rganish, ularni hal qilish uchun tavsiyalar berish va gigienik qoidalarni bilish maqolaning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati kattaligidan dalolat beradi

Ishdan maqsad: Turli yoshdagi qandli diabet kasalligiga uchragan bemorlarni qon va peshobidagi glykoza va keton tanachalarini sutka davomida o'zgarishini kuzatish.

Tadqiqot obektlari: Namangan viloyat endokrinologiya markazi bemorlari, ularning qoni, peshobidagi glykoza va keton tanachalarini aniqlash, ilmiy manbalar bilan solishtirish va taxlil qilish jarayonlari.

Tadqiqot metodlari: Och qoringa barmoqdan qon olish (qandli diabetga), glyukoza uchun peshob tahlili, qondagi insulin, C-peptid va glikozil gemogloblin darajasini biokimyoviy usulda aniqlash.

Natijalar va ularning tahlili: Qandli diabet alomatlari qanchalik namoyyon bo'lmasin uni tashxisini qo'yish uchun albatta qondagi gulukozani miqdorini me'yoridan ortganligi aniqlanishi kerak. Alohida olingan siydikdagi glykoza miqdoriga qarab qandli diabet tashxisini qo'yish mumkin emas.

Qondagi glykoza miqdorini qiymatlari normada quyidagicha: **Naxorga, och qoringa glykoza miqdori 5.5 mmol/l dan 6.1 mmol/l gacha bo'lib, qandli diabetda uning miqdori 6.7 mmol/l ga teng yoki undan baland bo'ladi.** Turli yoshdagi be'morlarning qon va peshobidagi qand miqdorini o'zgarib boradi. Namangan **Endokrinologiya dispanseri** laboratoriyasidagi kuzatish natijalariga ko'ra kun davomida qand miqdoridagi o'zgarishlar ko'proq 25 yoshdan oshgan be'morlarda kuzatilishni ko'ramiz.



25 yoshdan oshgan bemorlarning qon va peshobidagi glykoza miqdorining kun davomida o'zgarishi
(20 nafardan bemorlarda aniqlangan, o'rtacha ko'rsatkich olingan)

№	Bemorlarning yoshi	Naxorgi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Naxordan keyingi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Peshobdagi qandning miqdori %	Normada qandning miqdori Mmol/l
1	35	10.2	11.2	1.5	3,5-5,1
2	42	6.5	8.6	0.5	3,5-5,1
3	52	8.4	10.6	1	3,5-5,1
4	58	7.9	9.9	0.5	3,5-5,1
5	63	8.2	9.5	1.3	3,5-5,1

Kuzatish natijasida tekshirish olib borgan 35-63 yoshdagi be'morlarda nahordagi qondagi qandning miqdori normaga nisbatan **2,8 – 5,1 Mmol/l** miqdorda ko'payganligi aniqlandi. Nahordan keyingi qondagi qandning miqdori ovqatlanliklari hisobiga **3,5 – 6,1 Mmol/l** ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin be'morlardagi qondagi qandning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan **1,72 Mmol/l** ga oshganligi aniqlandi.

14 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan bemorlarning qon va peshobidagi glykoza miqdorining kun davomida o'zgarishi

(20 nafardan bemorlarda aniqlangan, o'rtacha ko'rsatkich olingan)

№	Be'mor Yoshi	Naxorgi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Naxordan keyingi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Peshobdagi qandning miqdori %	Normada qandning miqdori Mmol/l
1	14	7.9	9.8	0.3	3,5-5,1
2	16	8.2	8.9	1	3,5-5,1
3	21	6.5	6.9	0.1	3,5-5,1
4	18	8	7.5	0.8	3,5-5,1
5	25	7.5	8.2	0.9	3,5-5,1

14 yoshdan 25 yoshgacha tekshirgan be'morlarimizda nahordagi qondagi qandning miqdori normaga nisbatan **1,4 – 4,9 Mmol/l** miqdorda ko'payganligi aniqlandi. Nahordan keyingi qondagi qandning miqdori ovqatlanliklari hisobiga **1,8 – 5,1 Mmol/l** ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin be'morlardagi qondagi qandning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan **0,22 Mmol/l** ga oshganligi aniqlandi.

Qondagi qandning oshish miqdorini yoshga hos ko'rsatkichlarini taqqosladik. Natijada 35 yoshdan oshgan bemorlarga 25 yoshdan oshmagan bemorlarga nisbatan qondagi qandning miqdori balandligi aniqlandi

Hulosa: Qandli diabet kasalligida organizmning funksional holatida yuz beradigan o'zgarishlar jarayoni atroflicha o'rganildi va quyidagi hulosalar shakllantirildi:



1. Ishni bajarish vaqtida bemorlarning qonidagi qandning miqdorini yoshga hos o'zgarishlari hamda kun davomida o'zgarishlari aniqlandi
2. Kuzatish natijasida tekshirish olib borgan 35-63 yoshdagi be'morlarda nahordagi qondagi qandning miqdori normaga nisbatan **2,8 – 5,1 Mmol/l** miqdorda ko'payganligi aniqlandi.
3. Nahordan keyingi qondagi qandning miqdori ovqatlanliklari hisobiga **3,5 – 6,1 Mmol/l** ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin be'morlardagi qondagi qandning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan **1,72 Mmol/l** ga oshganligi aniqlandi.
4. 14 yoshdan 25 yoshgacha tekshirgan be'morlarimizda nahordagi qondagi qandning miqdori normaga nisbatan **1,4 – 4,9 Mmol/l** miqdorda ko'payganligi aniqlandi.
5. Nahordan keyingi qondagi qandning miqdori ovqatlanliklari hisobiga **1,8 – 5,1 Mmol/l** ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin be'morlardagi qondagi qandning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan **0,22 Mmol/l** ga oshganligi aniqlandi
6. Bemorlarda qondagi qandning oshish miqdorini yoshga hos ko'rsatkichlarini taqqosladik. Natijada 35 yoshdan oshgan bemorlarda 25 yoshdan oshmagan bemorlarga nisbatan qondagi qandning miqdori balandligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ismoilov S.I. Endokrinologiyadan tanlangan ma'ruzalar. –Toshkent, 2005.-B. 105-183.
2. Долтарёв С.С., Курцина И.Т. Физиология пищеварения. Учебн. Пособие. М.: “Высшая школа”. 1984. –С. 87-100.
3. Мак-Мюррей У. Обмен веществ у человека. М.: “Мир”, 1980. –С. 35-43.
- Матохина З.П. Основы физиологии питания, гигиены и санитарии. Учебник. 4 Москва, 2002. –С. 198-233.
- 5 Salomatlik kutubhonasi. // Ilmiy jurnal.-Toshkent, 2015. -23 b.

Internet saytlari:

1. <http://www.morefaqs.ru>
2. <http://vodatula.ru>
3. <http://www.ziyo.net>
4. <http://www.wikipedia.org>
5. <http://www.healthline.com>



03.00.00

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

13	Ўргимчакканани (<i>Tetranychus Urticae</i> Koch) ҳаётий циклининг давомийлигига атроф муҳит ҳароратининг таъсири Эркинов И.О., Рустамов И.К., Нишонов С.А., Ҳабибуллаев А.О.	55
14	Момоқаймоқ (<i>Matricaria Chamomilla</i> L.) ўсимлик экстрактининг жигар дарвоза вена қон томири функционал фаоллигига таъсири Иномжанов Д.Р., Омонтурдиев С.З., Зайнабиддинов А.Э.	58
15	Действия полифенола на регуляции транспорт Ca²⁺ NMDA-рецепторов синапсосомах мозга крыс. Хошимов Н.Н., Азизов В.Г., Мухторов А.А., Мамадаминов Р.Р., Рахимов Р.Н.	63
16	Farg'ona vodiysi po'stloqxo'r qo'ng'izlarining (<i>Coleoptera, Scolytidae</i>) ekologik-faunistik tahlili Sultonov D.Sh.	73
17	Qon va peshobdagi glykoza va keton tanachalarini qandli diabet kasalligida sutka davomida o'zgarishi Mavlanova S.A., Sheraliyeva D.N.	79
18	Фарғона водийси агроэкоцизмлари тунламсимон капалакларининг (<i>Noctuoidea: Lymantriidae, Arctiidae, Erebidae</i>) фаунасига оид маълумотлар Шерматов М.Р., Ботиров Э.А.	83
19	Chorva mollarida sut miqdorining irsiylanishi va uning o'zgaruvchanlik darajasi Mirzaolimova M.M., Abdullayev Sh.S., Abdulaminov M.I.	87
20	Биологически активных комплексы митохондрий как мишени для действия фармакологических агентов Нажимов А.У., Шертоева Р.С., Худойбердиева Н.Н., Ахмеров Р.Н.	92
21	Биогеохимические особенности солончаков центральной ферганы Юлдашев Г., Рахимов А., Азимов З.	99
22	Влияние калорийно ограниченной диета на газо-кислородный обмен и температуру тела животных Омонбоев Д.Р., Мирзаолимов М.М.	104
23	Регрессион таҳлил усули ёрдамида биологик жараёнларни илмий башоратлаш Имомов О.Н., Нажмиддинов А.Н., Усманов Б.С.	106
24	Қиёсий геномика усулларида фойдаланиб ғўзада гуллаш генларини ўрганиш Орипова Б.Б., Музафарова М.Ў., Комилов Д.Ж., Тураев О.С., Кушанов Ф.Н.	110
25	Итузумдошлар оиласига мансуб маданий ўсимликларни қишлоқ хўжалигида тутган ўрни. Исматов А.М., Тошматов С.О., Шермаматов Э.А.	115
26	Namangan viloyatida tarqalgan ayrim gidrofit o'simliklar bioekologiyasi Ergasheva X.E., Jalilova D.U., Jo'rayev O.S.	119
27	Олма мевасининг сақланувчанлигига турли омилларнинг таъсири Абдиева О.Т.	124